

**ZAMONAVIY UY JOY QURILISHIDA G'ISHT
DEVORLARINING QO'LLANILISH ISTIQBOLLARI**

Shodiyev Sardor Rustam o'g'li.

(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”

“Qurilish muhandisligi” kafedrası o'qituvchi-stajyori).

Boboqulov Murotjon Baxodirovich.

(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”

“Qurilish muhandisligi” kafedrası o'qituvchi-stajyori).

***Annotatsiya:** Zamonaviy uy-joy qurilishida g'isht devorlarining qo'llanilishi an'anaviy qurilish usullarining davomiyligi va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi sifatida ahamiyatli hisoblanadi. G'isht devorlari mustahkamlik, issiqlik izolatsiyasi va estetika bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shu bilan birga, ekologik tozaligi va energiya samaradorligi sababli zamonaviy qurilish materiallari bilan raqobatlashishga qodir. Zamonaviy texnologiyalar g'isht ishlab chiqarish jarayonini samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor qilish imkonini beradi, bu esa uning istiqbolda uy-joy qurilishida keng qo'llanilishini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar:

- *Zamonaviy qurilish*
- *G'isht devorlar*
- *Mustahkamlik*
- *Issiqlik izolatsiyasi*
- *Ekologik materiallar*
- *Energiya samaradorligi*
- *Qurilish innovatsiyalari*
- *G'isht ishlab chiqarish texnologiyalari*

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining dastlabki yillaridanoq xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yangi va zamonaviy texnologiyalarni, fan-texnika yutuqlarini, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar kabi qurilish sohalari ham rivojlanmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri qurilayotgan bino va inshootlarni energiya samarador qilib qurish hisoblanadi .

Ma'lumki g'ishtdan qurilgan binolar uzoq tarixga egadir. Butun dunyoda g'ishtdan barpo etilgan shunday binolar borki ulaning yoshi 100-150 yilni tashkil etadi.

G'ishtdan qurilgan va qurilayotgan binolar quyidagi afzalliklarga ega:

- Mustaxkamlik-bu eng muxim afzaliklaridan biridir, chunki xar bir inson yashayotgan uyini mustaxkam va uzoq xizmat qilishini xoxlaydi.

-Uzoq muddatga chidamliligi,misol qilib aytadigan bo'lsak g'ishtdan qurilgan binolarni

-Fasadini remontsiz xam kamida 100 yil xizmat qilar ekan.

G'isht loy,qum va suvdan tayorlanadi va shuning uchun tabiiy va toza materialdir, bu esa inson salomatligiga foydalidir.

Yana bir muxim afzalliklaridan biri bu-sovuqqa chadamliligidir, ma'lumki qancha kup sovuqqa chidamliligi yuqori bo'lsa binobiz shuncha uzoq vatq xizmat qiladi.

Birinchi Prezidentimizning tomonidan 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilingani hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 3 avgustdagi "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1167-sonli qaroriga muvofiq, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash, qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish maqsadida namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi rejalashtirildi va amaliyotga tadbiq etish yo'lga quyildi.

Dastlabki qurilgan uylar (2009 yilda) ikki qavatdan bo'lib umumiy maydoni 0,04 gektarni tashkil qilardi. Uning egalari ayniqsa yoshi ulug'lar birinchi qavatdan ikkinchi qavatga chiqib tushishga qiynalardilar .

Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 17-iyundagi "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy joy qurilishini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan ikki qavatli uylar o'rniga bir qavatli, umumiy maydoni esa 0,04ga dan 0,06 ga –ga o'zgartirildi. Endilikda 3, 4 va 5 –xonali yakka tartibdagi uylarning loyihalari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Hozirgacha Respublikamizda ja'mi (2009-2014 yillarda) 44500 tadan ortiq namunaviy uy –joylar qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 2015 yilda yana 11609 ta namunaviy uy-joy qurilishi rejalashtirilgan. Buning uchun Qaraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan, umumiy 1250,51 ga er maydoniga ega, ja'mi 311 ta massiv tanlab olingan .

G'isht O'zbekiston sharoitida eng ko'p tarqalgan an'anaviy qurilish ashyolaridan biri hisoblanadi. Shu bois Respublikamizda ko'plab turar-joy, jamoat, sanoat va qishloq xo'jaligi binolari g'isht va kichik o'lchamli bloklardan barpo etib kelinmoqda. G'ishtning mahalliy material ekanligi bunda katta rol o'ynamoqda. Bundan tashqari uzoqqa chidamliligi, atmosfera ta'siriga bardoshliligi va yuqori darajada mexanik mustahkamligi, ayniqsa xonalarda yaxshi mikroiklimni ta'minlashi unga bo'lgan talabni oshirmoqda. G'ishtning issiq - sovuq va tovush o'tkazmaslik xususiyatining yuqoriligi uning afzalliklariga kiradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, g'ishtli binolar seysmik hududlarda ko'p tarqalgan bo'lsada, zilzilabardoshlik nuqtai nazaridan zaif binolar tipiga kiradi. Shu sababli seysmik hududlarda quriladigan g'ishtli binolarning balandligi qurilsh hududining seysmikligiga qarab 3-5 qavatdan oshmaydi. Bu holatning asosiy sababi g'isht devor monolitligining, ya'ni yaxlitligining juda pastligidir.

G'isht materialiga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Misol tariqasida kuradigan bo'lsak, bir yil mobaynida pishgan g'isht ishlab chiqarilgan soni 1.1-jadvalda ko'rsatilgan:

jadval:

Iyun oyi 2017-yil (1 oyligi)	May oyi 2017-yil (1 oyligi)	May-mart oylari 2017-yil (3 oyligi)	Dekabr-may oylari 2016-2017- yillar (yarim yilligi)	Iyun-may oylari 2016-2017- yillar (1 yilligi)
4265	2114	4090	7935	16335

ADABIYOTLAR

Rustam o'g'li S. S. EKOLOGIK MATERIALLAR VA ENERGIYANI TEJASH TEXNOLOGIYALARI //Modern education and development. – 2024. – T. 13. – №. 2. – C. 135-140.

Rustam o'g'li, Shodiyev Sardor. "BARQAROR ARXITEKTURA TAMOYILLARI VA YONDASHUVLARI." *Modern education and development* 13.2 (2024): 141-146.

Rustam o'g'li, S. S. (2024). Avtoturargohlar kerakmi?.

Rustam o'g'li S. S. Qurilish konstruksiyalarini loyihalashda LIRA-SAPR dasturidan foydalanish. – 2024.

Rustam o'g'li, Shodiyev Sardor. "Qurilish konstruksiyalarini dasturlar asosida hisoblash." (2024): 330-335.

Rustam o'g'li, S. S. (2024). Qurilish jarayonlarida quruvchilar xavfsizligini ta'minlash uchun nima qilish kerak?.